

**Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy huquqiy bilimlarni shakllantirishning vosita
va usullari**

Ergashev Humoyun

O'zbekiston Milliy universiteti magistri

Ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxs aqliy qobiliyatlarini ifodalovchi yangi kategoriya – “innovatsion tafakkur” tushunchasi ham keng qo'llanilmoqda. Innovatsion tafakkur bu – jamiyat a'zolarining yangicha tafakkur asosida moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyati bo'lib, uning natijasida amaldagi tizimlar ish jarayonida yangiliklarni joriy qilish samaradorligining oshishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Innovatsion tafakkur imkoniyatlarini chuqur anglash, tushunish va tushuntirish bilan uning muhim va dolzarb jihatlarini tegishli sohalarga qo'llay olish, innovatsiyalarni tartibga solish, to'g'ri boshqarish muammolarini o'z vaqtida hal qilish muhim hisoblanadi. Bu haqda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev: “Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, g'ayratshijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz” , deya ta'kidlaydi. Ilmiy adabiyotlarda va rasmiy hujjatlarda yangicha tafakkur tarzi “innovatsion” deb ataladi. “Innovatsion tafakkur” zamonaviy tushuncha va texnik-texnologik taraqqiyot mavzulariga mos keladi. Biroq ta'kidlash lozimki, mazkur tushunchaning aniq talqinlari shakllantirilmagan, bu esa o'z navbatida o'zaro tushunishga, o'zaro aniq va konstruktiv xulosaga kelishga va amaliyotga joriy qilishga to'sqinlik qilayapti. “Innovatsiya” terminining kelib chiqishi lotin tilidan olingan. Rimliklar innovatsiyani, “yangilanish”, “o'zgarish”ni keng ma'noda tushungan. Innovatsion faoliyat murakkab tuzilishga ega bo'lgan ko'plab jarayonlarning yaxlit natijasidir. Shu boisdan ham uning turli jihatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi asosiy masalalardan biri bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, avvalo, yoshlarda o'zgacha fikrlash qobiliyatini shakllantirish talab etiladi. Yangicha fikrlashning bu jihati innovatsion faoliyatga “xizmat qiluvchi” va uning samaradorligini ta'minlaydigan o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Biz bunday yangicha fikrlash jarayonini

innovatsion tafakkur deb ataymiz. Innovatsion tafakkurning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yoshlarning nafaqat yuksak dunyoqarashi, balki ijodiy faolligi bilan uzviy bog'liqdir. Bunday tafakkurni faqatgina aqliy modellar bilan bog'lash, aql bu jarayonning harakatlantiruvchi yagona kuchi va atrof-muhitning moddiy o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan yakuniy natija deb hisoblashimiz to'g'ri emas. Chunki innovatsion tafakkur insonda shaxsiy motivatsiya, o'z-o'zini anglash, o'z ijodiy qobiliyatlarini to'g'ri baholash, ulardan samarali foydalanish orqali tobora yuksalib boradi. "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi". Innovatsion jamiyatning faol sub'ekti yoshlar bo'lib, hozirgi bosqichda uning timsolida innovatsion shaxsni tarbiyalash muhim hisoblanadi. "Innovatsion shaxs" tushunchasini amerikalik faylasuf Everett Xagen ilmiy muomalaga kiritgan. Endilikda jamiyat taraqqiyotini bugungi sharoitida jamiyatning ilg'or qatlami bo'lgan yoshlar orasida innovatsion shaxsni tarbiyalashga alohida ehtiyoj tug'iladi. Chunki shunday yoshlarga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlarni hosil qilish va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni yaratishda alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga bunday yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirishda innovatsion yondashuv va salohiyat, faoliyatning yangiliklarni yaratishga yo'nalganligi va innovatsion tafakkurni shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalar inson faoliyatining mezoniga aylanib, zamonaviy moddiy va ma'naviy qadriyatlar asosini tashkil etadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda zamonaviy innovatsion tafakkurga ega bo'lgan ijodkor shaxslar muhim rol o'ynashi mumkin. Jamiyat talablariga javob beradigan, yetakchilik qobiliyatiga ega ijodkor shaxslar o'z ortidan yuqori salohiyatli shaxslarni ergashtirish va ularning faoliyatini tashkil etish orqali innovatsion jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsiya ob'ektiv jarayon bo'lish bilan birga sub'ektlarning aqliy mehnat faoliyatiga asoslanadi va ular tomonidan takomillashtirilib boriladi. Innovatsion tafakkur sohiblari novator, innovator, dastlabki foydalanuvchilar va boshqa jarayonga aloqador shaxslar hisoblanadi. Innovatsiyalar taraqqiyoti natijasida innovatsion muhit, ong, madaniyat, maqsad va tanlovlarning yuzaga kelishi, ular asosida faoliyatning amalga oshishi va innovatsion guruhlar faoliyatining qo'llab-quvvatlanishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham "Madaniyat, — deb yozadi

P.Kozlovskiy, — bugungi kunda innovatsiya va jamiyat rivojlanishining kaliti sifatida tavsiya etiladi, u yangi texnikaning kiritilishi va jamiyat tomonidan “tan olinishi”ni yengillashtiradi, xalqaro tajriba almashinuv va bir-birini tushunishga yordam beradi. Madaniyat barcha ijtimoiy indikatorlar va jamiyat taraqqiyotining o’sish mezonlari oraliq’ida bo’lishi lozim”. Innovatsion tafakkurni rivojlantirish innovatsion xatti-harakat qilishni, innovatsion g’oyalarni amalga oshirishni ham talab qiladi. Ya’ni odamlarga o’z g’oyalari va orzularini o’z hayotlariga tatbiq qilishga imkoniyat berilishi kerak bo’ladi. Zero har bir innovatsion g’oyaga ehtiyoj iste’molchi tomonidan qoplanishi kerak. Shu sababli innovatsion tafakkurning tarkibiy qismlaridan biri sifatida g’oyalar kommersializatsiyasi hisoblanadi. Innovatsion tafakkur bu oxir natijada – daromad degani, bu har qanday ish, biznes taraqqiyoti qurolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh. O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 508.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. www.uza.uz.
3. Vasileva Ye. Zakonomernosti protsessa innovatsiy posledney chetverti XX veka. – Moskva: Ekonomika, 2007. –S. 5.
4. Gerasimova V., Mokichev S. Nano-economics in a National System of Innovation // Procedia Economics and Finance 5. 2013. Kazan (Russia) – P. 288-297.
5. Неъматов, О. Н. (2020). Шахс маънавиятини юксалтиришда инновацион технологияларнинг методологик жиҳатлари. Science and Education, 1(1), 296-303.